

## **FAN O'QITUVCHILARINING EXTIYOJLARIDAN KELIB CHIQIB VARIATIV DASTURLAR YARATISH HAQIDA.**

*Parkent tumani 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*geografiya fani o'qituvchisi*

***Ruxitdinova Nargiza Raximjonovna***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktablarda variativ sinflarni tashkil etish O`qitishga bo`lgan talabni kuchaytirish,o`quvchilarni fanga bo`lgan qiziqishini Oshirishni ta`minlaydi . Ularni ko`proq o`z ustida ishlashga undaydi.

**Kalit so`zi:** Variativ o'quv reja, Tanlov sinflar

Biz yoshlarni kuchli bilmlı, sog`lom hamda yuksak ma`naviyatli etib ulg`aytirishimiz ,vatanga muhabbat ruxida tarbiyalashimiz shart! 2019 - yilning 28-dekabr kuni Xalq ta'lifi vazirining „Umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarini tajriba –sinovdan o'tkazish ”to'g'risidagi 405-sonli buyrug'i chiqdi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 2019-2020-o'quv yilining 3- choragidan boshlab 10- 11- sinflarda fanlar tanlov asosida o'tkaziladigan bo'ldi. Variativ o'quv rejani yaratish ixtiyoriy Variativ o'quv rejani yaratishdan maqsad o'quvchilarning manfaatlarini inobatga olish, ularning oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari mavjud fanlarni chuqur o'rganishlariga sharoit yaratish, o'quv jarayonini kompentensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishdan iborat. Shunday bo'lsada o'quvchi,ota-onalar va o'quvtichilar tomonidan qo'llab quvvatlanmasa , mifik tabda Variativ o'quv reja bo'yicha tegishli fandan dars berish uchun yetarli malaka tajribaga ega o'qituvchilar bo'lmasa, joriy etilmaydi.Shuningdek variativ o'quv reja amalga oshirilayotgan maktablarda o'quvchilarning xohish –istiklariga ko'ra an'anaviy sinflar ham mavjud bo'ladi.An'anaviy sinflarda joriy o'quv yilining tayanch o'quv reja asosida dars olib borilsa , tanlov sinflarda variativ o'quv reja amalda bo'ladi. Tanlov sinflarda o'quvchi soni 35 nafargacha bo'ladi. O'quvchi soni

35 nafardan oshib ketsa tegishli fandan sinov bo'ladi. An'anaviy sinf 15 ta majburiy fanni o'qiydi, tanlov sinf 8 ta majburiy fanni o'qiydi ,shuning uchun tanlov sinflarga kiradigan o'qituvchilar yetarlicha bilim va katta tajribaga ega bo'lishi kerak. Fan o'qituvchilari labaratoriya mashg'ulotlari va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazib turishi kerak. Shuning bilan bir qatorda fan o'qituvchilarining extiyojlaridan kelib chiqib variativ o'quv dasturlar yaratish zarur bo'ladi. Agarda 1 tomonning roziligi bilan variativ sinflar yaratiladigan bo'lsa bu o'zini oqlamaydi,natijsasi esa o'quvchilarning otm larga kirishida ham aniqlanadi. Fan o'qituvchilari muntazam ravishda o'z ustida ishlashlari o'quvchilarni yangiliklardan habardor etib turishi, o'quvchilarni qiziqtira olishi va izlanishga mustaqil bilim olishga ham o'rgata olishi lozim deb o'ylayman .Shunday ekan o'qituvchining yoshi,tajribasi muhim . Kamida 35 yoshdan o'tgan o'qituvchi Tajribaga ega hamda o'quvchilar bilan til topishi oson bo'ladi. Fan o'qituvchilari mahoratli bo'lishi,o'quvchilarga yaxshi munosabatda bo'lishi ham o'quvchiga motivatsiya bo'la oladi.O'quvchi bamisol nihol bo'ladi uni to'g'ri shakillantirish o'qituvchilarga bog'liq. To'g'ri bola oilada tarbiyalanadi lekin uni muhit , sharoit ham o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun maktablardagi sog'lom muhit o'quvchilar tarbiyasiga ham ta'sir ko'rsatishi aniq. Fan o'qituvchilari variativ dasturlarni yaratishda hamma jixatlarini hisobga olib o'zini bilimiga salohiyatiga tayanadi . Tanlov sinflarga keladigan bo'lsak aniq fanlarni tanlagan sinflarga ijtimoiy-iqtisodiy fan yo'nalishi bo'yicha ham 1 soatdan bo'lsa ham o'tilishi kerak deb o'ylayman,shundagina o'quvchilarda zerikish paydo bo'lmaydi, hozirda 9-10 soatlab bir xil fan otilishi ham o'quvchilarni zerikishiga sabab bo'layotgannini ko'rishimiz mumkin. Aytadigan bo'lsak hozirda variativ sinflarda dars berayotgan o'qituvchilar nima o'tishini ham bilmaydi ular uchun qo'shimcha qo'llanmalar yaratilishi kerak,hayot bilan bog'liq bo'lsa yana ham yaxshi bo'lardi. Yangi o'quv yilida umumiy o`rta ta`lim maktabining 7-,8-,9-sinflarida ham tanlov sinflarini tashkil etish imkoniyati yaratilmoqda O'tgan o'quv yilida tanlov tanlov sinflari 10-11- sinflar uchun joriy etilgan edi.7-,8-,9-sinflarda ham o'quvchilar veb -frilans

bo`yicha bilim va ko`nikmalarga ega bo`lish imkoniyatiga ega bo`ladi. Tanlov sinflari yo`nalishi 5 tadan 12 tagacha oshirilmoqda.

Birinchi yo`nalish : 10-11-sinf uchun –xorijiy til va filologiya yo`nalishi;

Ikkinci yo`nalish: 10-11-sinflar uchun –moliya-iqtisod yo`nalishi;

Uchinchi yo`nalish: 7-8-9-10-11-sinflar uchun veb-frilanser (internet tarmog`I orqali mehnat daromadi olish) yo`nalishi;

To`rtinchi yo`nalish :10-11-sinf uchun-texnologiya yo`nalishi;

Beshinchi yo`nalish:10-11-sinf uchun-tabiiy fanlar yo`nalishi;

Oltinchi yo`nalish: 10-11-sinf uchun –ijtimoiy gumanitar yo`nalish;

Yettinchi yo`nalish: 10-11-sinf uchun-boshlang`ich ta`limy o`nalishi;

Sakkizinchi yo`nalish:10-11-sinf uchun-kimyo texnologiya yo`nalishi;

To`qqizinchi yo`nalish: 10-11-sinf uchun-geografiya va geologiya yo`nalishi;

O`ninchi yo`nalish:10-11-sinf uchun-maktabgacha ta`lim va psixologiya yo`nalishi;

O`n birinchi yo`nalish:10-11-sinf uchun-tarix va arxialogiya yo`nalishi;

O`n ikkinchi yo`nalish:10-11-sinf uchun-turizm yo`nalishi.

Maqsad: o`quvchilarni oliy ta`lim muassasalarining kirish imtihonlariga tayyorlash. Oliy ta`lim muassasalari o`qituvchilarini jalb qilish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.**

Respublika konferensiya ma`lumotlari 2020 y.

Diyorbek Xaydarov (metod xtb.toshvilxtbmetodika)

Xalq ta`limi o`qituvchilari.Mahoratli pedagog jurnali.

### **Internet saytlari**

[www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)

[www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)